

O'TKIR HOSHIMOVNING SHAXSIY HAYOTI VA FAOLIYATI

Abdimo‘minova Shohida

*Termiz Davlat Universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish
(Ingiliz tili) yo‘nalishi, 4-kurs talabasi.*

Husniddin Suvonov

*Termiz Davlat Universiteti, Adabiyotshunoslik
fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Bu maqola O'tkir Hoshimovning shaxsiy hayoti, ijodiy faoliyati, va uning yaratgan eng mashhur asarlari haqida tushuncha beradi. Hoshimovning milliy-ma'naviy mavzular, ijodiy tarz va uning o'zining jamiyatga ta'siri haqida muhokama qiladi. Maqola asosan qisqa va maqbul ma'lumotlar beradi, uning hayot va ijodiy yutuqlarini tushuntiradi.

Kalit so‘zlar: shoir, yozuvchi, asarlar, milliy-ma'naviy mavzular, ijodiy tarz, jamiyatga ta'sir, hayot, ijodiy yutuqlar.

O'tkir Hoshimov 1941 yil Toshkent viloyatining Zangiota (hozirgi Chilonzor) tumanidagi Do'mbiravot mavzeida tug'ildi. O'. Hoshimov mehnat faoliyatini erta boshladi. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika kulliyotida o'qish bilan baravar gazeta tahririyatida ishladi. 1959 yildan 1963 yilgacha "Temiryo'lchi", "Qizil O'zbekiston", "Transportniy rabochiy" gazetalarida xat tashuvchi, mussaxhih, tarjimon bo'lib ishladi. So'ng "Toshkent haqiqati" gazetasida adabiy xodim (1963-1966), "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri (1966-1982), G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinnbosari (1982-1985) bo'ldi. 1985-1995 yillarda "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrirlik qildi. 1995 yildan 2005 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi lavozimida ishladi. 2005 yildan "Teatr" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladi.

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti, aniqrog'i nasri rivojida O'tkir Hoshimovning munosib o`rni bor. Mustabid tuzum sharoitida u o'zining haq so`zi bilan el orasida e'tibor qozondi. Yozuvchi o'z asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Ehtimol, uning hikoya, pyesa, hikoyalarida yuzaki o'rinnlar bordir, ammo adib hech qachon yolg'on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog orasiga o'ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo'liga kirmagan. U o'tkinchi mayllarga berilmay, so'z san'atining azaliy muammosi shaxs jumbog'i, ijtimoiyadolat tuyg'usi ifodasi bilan qiziqdi. Adabiyot dunyosida <<nasrdagi tarona>>, «nasrdagi shoir atamalari bor. Yangi o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy bilan Said Ahmad haqli ravishda prozaning shoiri

deb nom olganlar. Zamonaviy o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo'shiq, tarona deb atash mumkin.

Ilk hikoyasi «Cho'l havosi»dan tortib «Daftar hoshiyasidagi bitiklar>>> kitobiga qadar barcha asarlariga xos mushtarak jihat shuki, ular betakror, benazir sirli musiqiy ohang bilan yo'g'irilgan. Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so`zlar musiqa singari quyilib keladi uning hikoyalari she'rdek, dostondekk o`qiladi, ular yakka so`zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, hikoyalari ko'p ovozli simfoniyani eslatadi, hatto uning badiiyalari, publisistik maqolalarini o'qiganda inson ko'ngil xazinasining, tuyg'ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, keskin ruhiy dramalar, fofiyalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi. O'tkir Hoshimov nasrini kitobxonga manzur qilgan joziba sirlaridan biri shunda. Adabiyotshunos Abdug`afir Rasulov o'zining ardoqli adib asarida "O'tkir Hoshimov inson, iste'dodli yozuvchi, lavozimdagи rasmiy shaxs. Aqli, dono inson... U ko`p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir" (Rasulov A. 2001: 76). -deydi.

80-yillarga kelib O'tkir Hoshimov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli. uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar ro'y berdi. Yozuvchi, bir tomondan, radio va televideniya orqali jiddiy chiqishlar qildi, u televideniyada olib borgan «Bahs» ko'rsatuvi butun Respublikani «oyoqqa turg'izdi». Shuningdek, matbuotda birin-ketin o'tkir publisistik maqolalar e'lon qildi. Xususan, «Qalbning oppoq daftari», «Avlodlarga nima deymiz», «Davlat siri», <<Mantiq qani?» kabi maqolalarining har biri ularda o'rtaga tashlangan ma'naviy. ijtimoyi-siyosiy muammolarning ko'lami, salmog'i, ta'sir kuchi jihatidan yetuk badiiy asarlarga teng deb baholanadi.

Ayni paytda adib yaratgan eng yaxshi asarlar avvalgilaridan farqli o'laroq. oshkora publisistik talqindan xoli. Bu davrga kelib adib ijodida publisistik faoliyat bilan sof badiiyat orasidamuayyan ajralish ro'y berdi. Muallifni endi kundalik dolzarb masalalar emas, ko`proq azaliy-boqiy, ma'anviy muammolar, inson taqdiri, inson qalbining jumboqlari ko`proq qiziqtiradi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo'r sinov bo'lgani, bu sinov paytida o'zbek kishisiga xos bo`lgan noyob fazilatlar favqulorra bir kuch bilan yuzaga chiqqani, kishilarimizdagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg'ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oladi. O'sha sinov kezlarida faqat o'z jonini, manfaatini o`ylab, munofiqlik, xiyonat ko`chasiga kirgan ayrim kimsalar qilmishini qahr-g'azab bilan qoralaydi, ma'naviy inqirozini, fofiasini ochadi, qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insonlik sha'ni, burchi, ma'suliyati, e'tiqodlik masalalarini ko'taradi, kitobxonni ular haqida o'ylashga, bahsga chorlaydi. Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko'tariladi.

O‘zbekiston Xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov mustaqil Vatanimizning adabiyoti va ma’naviy xazinasiga salmoqli hissa qo’shgan ijodkordir. Qariyb ellik yil davomida turli tillarda ikki yarim millionga yaqin nusxada chop etilgan yetmishdan ortiq kitobi adibni xalqimizning ardoqli farzandiga aylantirdi.

Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi, so‘ngra kunduzgi bo‘limida (1964) o‘qidi. “Temir yo‘lchi” (1959–1960), “O‘zbekiston ovozi” (1960), “Toshkent haqiqati” (1960–1966), “Toshkent oqshomi” (1966–1982) gazetalarida bo‘lim mudiri, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida bosh muharrir o‘rribosari (1982–1984), “Sharq yulduzi” jurnalida bosh muharrir (1985–1995), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo‘mitasi raisi sifatida (1995–2005) faoliyat ko‘rsatdi. Uzoq yillar (2005–2013) “Teatr” jurnaliga rahbarlik qildi.

O‘tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlanib, shu yo‘nalishdagi “Po‘lat chavandoz” nomli birinchi kitobi 1962 yilda bosilib chiqdi. Ilk hikoyasi esa 1963 yili “To‘rt maktub” nomi bilan e’lon qilindi. Keyinchalik mazkur hikoyasi asosida “Cho‘l havosi” (1963) qissasi yaratildi. Shundan so‘ng “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi” qissalari maydonga keldi. “Bahor qaytmaydi” (1970), “Qalbingga quloq sol” (1973) qissalari yozuvchiga katta shuhrat keltirdi.

“Nur borki, soya bor” (1976) romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg‘unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma’naviy-axloqiy masalalarini ko‘tarib chiqdi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan “Dunyoning ishlari” (1982) qissasini qaysidir ma’noda avtobiografik asar deyish mumkin. Asarning bosh qahramoni muallifning o‘z onasidir. “Ikki eshik orasi” romani esa adib ijodida alohida ahamiyatga ega. Unda qariyb qirq yillik davr qamrab olinib, bir qator chigal, murakkab taqdirlar misolida o‘zbek xalqining tarixiy qismati mahorat bilan tasvirlanadi. Roman 1986 yilda Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. “Tushda kechgan umrlar” romani ham turg‘unlik davri illatlarini fosh etuvchi asar sifatida alohida o‘rin tutadi.

O‘tkir Xoshimov nasrini kitobxonga manzur qilgan joziba sirlaridan biri shunda. Adabiyotshunos Abdug`afir Rasulov o‘zining ardoqli adib asarida "O‘tkir Hoshimov inson, iste’dodli yozuvchi, lavozimdagи rasmiy shaxs. Aqli, dono inson... U ko‘p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir" (Rasulov A. 2001: 76).

Ushbu qarashlarni inobatga olgan holda, mustaqilligimizni dastlabki yillaridan boshlab yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Shu kundan e`tiboran Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek: "Buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish assosida, jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda" "(Karimov A. 1997: 5).

Darhaqiqat o'zbek adabiyotida o`zining munosib o'rniga ega bo'lgan adib o'z ijodiy faoliyati davomida ko'rsatib bergan desak adashmagan bo'lamic. Shu sababli ham adib 1991-yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni bilan 2001- yilda "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. Adib chindanda salmoqli ijod qilganligi kitobxonlar tomonidan uning asarllari sevib o`qilishida ko'ramiz. Biz adibning "O`zbeklar hikoyalar to'plamidagi "O`zbeklar" hikoyasidagi olg'a surilgan g'oyalar haqida to`xtalmoqchimiz. "O`zbeklar" hikoyasi shunday boshlanadi. "Otinoyining hovlisi past ko`chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor. Otinoyinikida yo`q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo'ladi" (Hoshimov O. 2006: 33).

Adib bu yerda kambag'al bir oilani tasvirlagandek seziladi, aslidachi fan kandidati, trest boshqaruvchisi Iskandar Vahobovichning onasining uyi, har bir xalq yoki millatning o'z urf-odatlari, ananalari bor bunday urf-odatlarni Otinoyi va qo'shni kelin o'rtasidagi munosabatlarda olib berganday nazarimizda. Shuningdek Otinoyi obrazida o'zbek ayolining o'z umir yo'ldoshiga, oilaga, farzandiga bo'lgan kuchli mehri va sadoqati tasvirlanadi, bundan tashqari urushga ketgan umir yo'ldoshining qaytib kelmaganida, oddiy bir o'zbek oilasiga yetkazgan sitamlarini u haqda ko`p to`htalmagan holatda kitobxonlar ongiga yetkazib bergenini ko`rishimiz mumkin. Kelinoyi obrazi orqali adib butun o'zbek kelinlariga xos fazilatlarni nomoyon etgandek, yani qo'shni kelin bo`lishiga qaramay Otinoyi unga o'z kelinidek muomila qilishida o'zbek xalqining bir- biriga mehrini ko'ramiz. Xalqimizda bir ibora bor "Yaxshisini oshirib yomonini yashiradi" bu ibora Otinoyi uchun aytilgan balki butun o'zbek onalari uchun aytilgan desak aslo adashmagan bo'lamic.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikki eshik orasi O'tkir Hoshimov, "Sharq nashriyoti" 2018
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi
3. Gulamovna U. S(2022) O'tkir Hoshimov asarlarida insoniy fazilatlarning ifodalanishi.
4. O'zbek adabiyoti tarixi 4-qism. Toshkent 2014
5. Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION TECHNOLOGY. EPRA
6. Ruziyeva, N. (2022). ESPECIALLY THE WORDS THAT HAVE BEEN ADAPTED FROM FRENCH TO UZBEK.
7. Kenjaevna, R. N. (2022). LITERARY ANALYSIS OF "FATHERS AND CHILDREN".

8. Kenjaevna, R. N. (2023). USING GAMES AND FREE LANGUAGE LEARNING APPS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES THROUGH NEW INNOVATIVE APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING.
9. Kenjayevna, R. N. (2023). ABOUT THE WORDS ADOPTED FROM THE FRENCH LANGUAGE INTO THE UZBEK LANGUAGE.
10. Kenzhaevna, R. N. , & Abdukhalkovna, M. K. (2023). Active and interactive methods of learning: review, classifications and examples. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior.
11. Ikromovna, M. M. (2023). THE PRESENCE OF A PARADOX IN EVELYN WAUGH'S WORKS.
12. Ikromovna, M. M. (2022). SATIRICAL APPROXIMATION USED IN ENGLISH LITERATURE.